Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2026-yil yanvar-sentabr oylari uchun

I. Kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026-yilning 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) **11 841** tani tashkil etdi.


Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi



Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025-yil 1- oktabr holatiga, *birlik*	**2026-yil 1- oktabr holatiga,** *birlik*
Sirdaryo viloyati	**9 522**	**11 841**
Guliston shahri	2297	2803
Shirin shahri	226	266
Yangiyer shahri	755	909
tumanlar:		
Oqoltin tumani	639	802
Boyovut tumani	819	1018
Sayxunobod tumani	611	722
Guliston tumani	686	894
Sardoba tumani	900	1118
Mirzaobod tumani	835	1075
Sirdaryo tumani	1 206	1 522
Xovos tumani	548	712


Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida 1 753 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



2026-yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar savdo sohasida 645 ta, xizmatlarda 474 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 387 ta, sanoatda 175 ta hamda qurilishda 72 ta tashkil etilgan.


Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025-yil yanvar-sentabr oylarida, *birlik*	**2026-yil yanvar-sentabr oylarida,** *birlik*
Sirdaryo viloyati	**1 643**	**1 753**
Guliston shahri	410	421
Shirin shahri	38	26
Yangiyer shahri	130	135
Oqoltin tumani	97	93
Boyovut tumani	136	150
Sayxunobod tumani	91	88
Guliston tumani	110	126
Sardoba tumani	136	182
Mirzaobod tumani	170	182
Sirdaryo tumani	229	221
Xovos tumani	96	129

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 72,1 % ni tashkil qilib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan 1,4 % ga ko'paygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2026-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 14 782,8 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 60,7 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 120,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Oqoltin (100,0 %), Boyovut (97,1 %), Xovos (95,8 %), Guliston (81,2 %) va Sayxunobod (78,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2026-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 5 343,6 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 83,8 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 110,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Yangiyer shahar (100,0 %), Guliston shahar (98,4 %) va Sayxunobod (97,0 %) tumaniga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2026-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 13 952,6 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 71,8 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 142,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Yangiyer shahar (93,1 %), Guliston (86,0 %), Oqoltin (82,9 %), Sayxunobod (82,7 %) va Sirdaryo (80,0 %) tumanlariga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati 2026-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 14 244,0 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 91,8 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 104,7 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Sardoba (109,1 %), Oqoltin (108,3 %), Boyovut (106,2 %), Shirin shahar (105,2 %), Xovos (105,0 %) va Guliston (102,7 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2026- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 6 031,2 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining ulishi 91,3 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 118,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Shirin shahri (97,8 %) Oqoltin (99,2 %), Sirdaryo (94,0 %) tumanlari hamda Yangiyer (89,6 %) va Boyovut (92,9 %) shaharlariga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 9 148,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 65,9 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 114,0 % ni tashkil qildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 187,9 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 130,3 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 540,7 mln AQSH dollarini yoki jami importning 76,3 % ini tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Guliston – 99,9 %, Boyovut – 99,4 %, Sayxunobod – 99,2 %, Xovos – 99,1 %, Oqoltin – 95,2 % va Sirdaryo tumanlarida – 81,4 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



VI.Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2026-yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,9 % ni tashkil etdi. 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,0 % ni tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 87,7 % ni tashkil etgan bo'lib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 99,8 % ni tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,3 % ni tashkil etib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,4 % ni tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,0 % ni tashkil etib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,6 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)


Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun a'lo deb baholagan korxonalar ulushi 2026-yilning III choragida 8,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, umumiy iqtisodiy vaziyatini yaxshi deb baholagan 63,6 % ni, umumiy iqtisodiy vaziyatini o'rtacha deb baholagan 22,6 % ni, umumiy iqtisodiy vaziyatini yomon deb baholaganlar 5,2 % ni tashkil qildi.

Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanish (ko'payish) deb baholagan korxonalar ulushi 2022-yilning III choragida 48,3 % ni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2026-yilning III choragida 47,1 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 2022-yilning III choragida 43,3 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026-yilning III choragida 50,2 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashish (kamayish) deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2022-yilning III choragida 8,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilning III choragiga kelib, bu ko'rsatkich 2,7 % ni yoki 5,7 birlikka kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning III chorak davomida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida baholanishi

Kichik korxona va mikrofirmalarning 2026-yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini a'lo deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, xizmatlarda – 10,7 % ni, savdoda – 8,5 % ni, sanoatda – 11,2 % ni va qurilish sohasida – 12,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini yaxshi deb baholagan korxonalarning ulushi xizmatlar sohasida – 63,8 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 72,7 % ni, qurilishda – 59,6 % ni, sanoatda – 55,1 % ni va savdoda – 71,2 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini o'rtacha deb baholagan korxonalarning ulushi xizmatlar sohasida – 25,5 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 19,7 % ni, qurilishda – 22,8 % ni, sanoatda – 27,6 % ni va savdoda – 15,2 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini yomon deb baholagan korxonalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 7,6 % ni, qurilishda – 5,3 % ni, sanoatda – 6,1 % ni va savdoda – 5,1 % ni tashkil etdi.




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2026-yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, keyingi chorak uchun o'zgarishlar istiqbolini yaxshilanish (ko'payish) deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi – 44,0 % ni, xizmatlarda – 48,9 % ni, savdoda – 49,1 % ni, sanoatda – 43,9 % ni va qurilish sohasida – 52,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi xizmatlar sohasida – 51,1 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 53,0 % ni, qurilishda – 45,6 % ni, sanoatda – 52,0 % ni va savdoda – 47,5 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini yomonlashish (kamayish) deb baholagan korxonalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 3,0 % ni, qurilishda – 1,8 % ni, sanoatda – 4,1 % ni va savdoda – 3,4 % ni tashkil etdi.

Umumiy iqtisodiy vaziyatini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida (Keyingi chorak uchun o'zgarishlar istiqboli) baholanishi



Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.